



**O'ZBEKISTON RIVOJLANISH TARIXI VA YOSHLARGA
BERILAYOTGAN IMKONYATLAR**

Shukurova Farangiz Elmurod qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika Instituti

3-kurs 9F-2020 guruh Fizika yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7013589>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda demokratik yo'lida ilmiy ishlar qanday olib borilayotgani, yoshlarning fikr va mulohazalari ilmiy nutqda tutgan o'rni va bugungi kunda yoshlar uchun qanday imkoniyatlar yaratilayotgani haqida to'xtalamiz.

Kalit so'zlar: Ilmiy uslub, fikr mulohaza aniqlik, ishlarni dolzarbligi, ta'lim tarbiyaning muhimligi, keng imkoniyatlardan foydalanish usullari.

Abstract: In the article we will consider how scientific works are being carried out for democratic changes in Uzbekistan the role of young people their opinions and opinions in scientific discourse and what opportunities are currently people.

Key words: Scientific method, reasoning, accuracy, relevance of work, importance of education and training, methods of using wide opportunitie.

O'zbek millati haqli ravishda sayyoramizdagi eng qadimgilardan biri hisoblanadi. O'zbekistonning o'ziga xos madaniyati sivilizatsiyalari avvalida shakllana boshlagan va ming yillar davomida jiddiy o'zgarishlarga duch kelgan.

O'zbekiston hududi O'rta Osiyoning qoq markazida, Sirdaryo va Amudaryoning markazida Sitdaryo va Amudaryoning o'rtasida joylashgan. XIX asrning 60-yillarida hududga chor Rossiyain bostirib kirishi natijasida Turkiston generalgubernatorligi tuzuldi. 1917-yilda O'zbekiston Sovet Respublikasiga aylandi. Shu davirda ko'plab respublikalardan turli millatlarning ommaviy ravishda ko'chishi ro'y berdi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston BMTga a'zo bo'ldi, demokratik boshqaruv shakli va bozor iqtisodiyoti rivojlana boshladi. O'zining boy tarixi, ko'p sonli turli millat va ellatlarning ushbu hudud orqali o'tishi tufayli, O'zbekiston o'zida Sharq va G'arb sivilizatsiyasilarini jamladi, boy madaniyat va millatlatlaroro totuvlikka ega mamalakatga aylanadi.

Hech shubhasiz, istiqlol yillarida yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish yo'lida tarixiy ishlar amalga ashirildi, mard va olijanob xalqimizning bukilmas irodasi va ulkan salohiyati bilan katta marralar zabt etildi. Tarixan qisqa muddatda mamlakatimiz Konstitutsiyasi- Asosiy qonunimiz ishlab chiqildi va qabul qilindi. Vatanimiz suverern davlat sifatida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egalladi. O'zbekiston zamonaviy davlatchilik





asaslari yaratilib konstitutsiyaviy tuzumga asos solindi. Davlat hokimyatining ushta mustaqil tarmog'i -qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari qaror topdi. Tom ma'nodagi konstitutsiyaviy davlat barpo etildi.

O'zbekiston Respublikasining suvereniteti va davlat mustaqilligini, sarhadlarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch-osoyishta hayoti hamda milliy manfaatlarimizni ishonchli himoya qilish qodir bo'lgan Qurolli Kuchlar tashkil etildi. Milliy valyutamiz -so'm joriy etildi va oltin-valyuta zaxiralarimiz shakllantirildi.

Mustabit tuzumdan voz kechib, demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan jarayonlar, murakkab va tahlikali davirning o'zi turli mummo va vazifalarni oldimizga ko'ndalang qo'ydi. Ularni muvaffaqiyatli hal etish uchun bilim va tajribamiz, iroda va qatiyatimiz ba'zan yetsa bazida yetmagan holatlari ham bo'ldi.

SHu bois mamlakatimiz taraqqiyotini yangi yuksak bosqichga ko'tarish, buning uchun yangi islohatlarni amalga oshirish obyektiv zarurat, . eng muhim strategik vazifaga aylandi. Darvoqey „yangi“ degan so'zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Masalan eng ko'hna bayramlarimizdan biri Navruz - yangi kun yangicha to'g'ilish deb atalishini bir esga olaylik. Ushbu qadimiy bayramlarimizda milliycha uruf odatlarimiz ota bobolarimizdan qolgan udumlarimiz milliycha taomlar va ko'plab suzanayu doiralarni yangrashi shu kabi qadriyatlarimiz hayotimizga shu qadar singib ketganki, xalqimiz asrlar davomida, buyuk shoir va mutaffakir Aleshir Navoiy bobomiz aytganlaridek, „Har tuning qadr o'lubon, har kuning bo'lsin Navruz!“ degan ezgu tilaklari pok niyatlar bilan yashab keladi. Qolaversa bag'ri keng O'zbekistona yoshlarga judda katta emkonyatlar eshigi ochilgan desam mubolag'a bo'lmayman hozirgi Kelajak yoshlarning qo'lida shiyori ostida muhtaram Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyevning qilayotgan ishlari va biz yoshlarni bilimga bo'lgan salohiyati yanada ko'chli bo'lsin diya takitlagan so'zlari biz uchun judda katta matevatsiya bo'ldi. Bugungi kunda Konstitutsiyani isloh qilish jarayoni ketmoqda. Davlatimiz rahbari bu boradagi taklif va tashabbuslarining 70 foizdan ortig'ini yoshlar ilgari surganiga urg'u berdi.

Albatta, yangilanayotgan Konstitutsiya bu sizlarning Konstitutsiyangiz,- diya ta'kidladi Prezident. Men shuni aytib utishim kerakiy Oliy o'quv yurtida o'qir ekanman bugungi yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkonyatlarni ko'rib rostini aytsam juda xursandaman. Men talaba sifatida ushbu maqolani yozoyotganimdan maqsad shuki, har bir amalga oshirilayotgan islohatlarda yoshlar huuqi kafolatlanganligidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining





„Yoshlarga oid davlat siyosatining asaslari to'g'risida"gi Qonunda yoshlarni huquqiy va Ijtimoiy muhofaza qilish, iste'dodini qo'llab-quvvatlash masalalari qamrab olingan bo'lsa, „Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonunda hokimiyat va boshqaruv organlarining bu boradagi vakolatlari hamda sahaga doir boshqa ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solingan.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning 41-moddasida bepul umumiy ta'lim olish huquqining yoshlar uchun kafolatlanganligi ham e'tiborga molikdir. Shaxsning bilim olishga bo'lgan huquqi asosiy Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham mustahkamlab qo'yilgan va iste'dodlarini to'la namayon etishga haqlidir. Shu uchun ham bu borada qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildiki, ular yoshlar intilishi va iqtidorlarini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishga oid rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirish yangi qadam va yangi tizimni shakillantiradi. Quvonarli tomoni shundaki, zamon talablari va ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida bugungi yoshlar talab va ehtiyojlarini o'rganib, yangidan yangi imtiyozlar va imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda. Yangi yoshlar siyosatini qurishda mamlakat Prezidentining shaxsan ishtirokini alohida ta'kidlash kerak. Davlat rahbari tomonidan yosh avlodni shakillantirishning dastlabki pallasida tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy ta'lim muassasalaridan o'zimizdagi oliy ta'lim o'quv yurtlariga o'qishni ko'chirish, test jarayonlari, bir vaqtning o'zida 5 ta OTMda bilimni sinab ko'rish masalalari buning yorqin misolidir.

Yoshlar -har qanday jamiyatning ertasi. Ular tom manada, O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi hisoblanadi. Zero, yangi O'zbekiston yoshlari - kelajagimiz va istiqbolimiz poydevoridir. Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojatnomasida „Yangi O'zbekiston -maktab ostonasidan, ta'lim tarbiya tizmidan boshlanadi“, degan g'oyani ilgari surgan bejis emas. „Agar katta avladning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat -shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak ko'zlangan marralarga albatta yetamiz”.

Shu nuqtayi nazardan bugun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Murojaatnomada bayon etilgan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlash uchun faol ish olib bormoqda. Xususan, ushbu tarixiy nutqdan so'ng parlament quyi palatasida Murojaatnoma mazmun-mohiyatiga va ahamiyatga bag'ishlangan bir qator tadbirlar utkazildi. So'nggi bir necha yil davomida yoshlarga berilayotgan e'tibor tubdan o'zgaradi. Jumladan 2016-yilda





yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asalarini mustahkamlash maqsadida „Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.Yurtimizda 30-iyun- „Yoshlar kuni“ deb e'lon qilindi.Bundan tashqari yoshlarni himoya qilish va qo'llab-quvvatlash maqsadida bugungi kunga qadar parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlar qabul qilindi, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilindi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamalkatimizda yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash, ularni hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish uchun Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari huzurida Yoshlar parametirlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Hozirda Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamentida 100 nafar, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentida esa, 250 nafar yoshlar faoliyat yuritmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Innovatsiya rivojlanish vazirligin huzurida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi

Xulosa qilib aytganda men shu O'zbekiston farzandi bo'lib tog'ilganimdan juda ham shukronalar aytaman.Muhtaram Prezintimiz SHavkat Mirziyoyev biz yoshlarga ko'pdan ko'p imkonyatlar, eshigini ochib bermoqda. Yoshlar bizning kelajagimiz , ertangi kunimizning yetakchilari deya bizga jon ko'ydirib qilayotgan mehnatlarini samarasini ko'rasatishimiz va berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalana olishimiz kerak. Men ham hozirda talaba sifatida shuni aytishim mumkunki O'zbekistonga Prezintimga Xalqimga munosib farzan bo'la olishim kerak.Biz yangi O'zbekiston kelajagi va istiqbolning poydevorimiz, shu sababli keling ey birodar qo'lni qo'lga beraylikda, yurt ravnaqi uchun birgalikda harakat qilaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi- Toshkent O'zbekiston 2017
- 2.Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkend O'zbekiston 2017.
3. SHavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategyasi Toshkend "O'zbekiston" 2021
4. www.strategy.uz

